Sirkulyar iqtisodiyot modelining tadbirkorlik sohasiga tatbiqi esa kichik va o'rta biznes subyektlari uchun innovatsion imkoniyatlarni yaratmoqda. Masalan, chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashgan startaplar, ekologik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalar, energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etayotgan ishlab chiqaruvchilar nafaqat iqtisodiy foyda, balki ijtimoiy mas'uliyatni ham o'z zimmasiga olmoqda.

Shu o'rinda, sirkulyar iqtisodiyotdan korxonalar va tadbirkorlar oladigan manfaatlar bir necha yo'nalishlarda namoyon bo'ladi: ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot hayotiy siklini uzaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, ekologik xavflarni kamaytirish va xalqaro bozorlarda "yashil" sertifikatlar asosida raqobatbardoshlikni oshirish.

Shunday qilib, ushbu tadqiqotning maqsadi — sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining O'zbekiston korxonalari va tadbirkorlik subyektlari faoliyatiga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish, uning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorligini tahlil qilish hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir. Mazkur yo'nalishda olib borilayotgan izlanishlar mamlakatimizda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish jarayonini jadallashtirish va raqobatbardosh, innovatsion korxonalar tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasi zamonaviy iqtisodiy taraqqiyotning eng muhim strategik yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish jarayonida resurslardan oqilona foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va iqtisodiy faoliyatning ekologik izini kamaytirishga qaratilgan. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlaydi, balki korxonalarning iqtisodiy samaradorligini ham oshiradi [6].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bu yo'nalishda izchil siyosiy va institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentning 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son qarori bilan "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi – 2030" tasdiqlanib, iqtisodiyotni resurs tejamkor va chiqindisiz rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi [2]. Shuningdek, 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarorida mazkur strategiyaning amalga oshirilishini jadallashtirish, energiya samaradorligini oshirish hamda chiqindilarni qayta ishlash sohasini rivojlantirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab berilgan [1].

Xalqaro tajribalar ham sirkulyar iqtisodiyotning keng iqtisodiy imkoniyatlarini tasdiqlaydi. OECD (2018) hisobotida 2060-yilgacha global resurslarga bo'lgan talab 2 barobarga ortishi prognoz qilinib, sirkulyar iqtisodiyotni bu jarayonni barqarorlashtiruvchi asosiy mexanizm sifatida e'tirof etgan [5]. UNIDO (2017) esa ushbu konsepsiyani sanoat siyosatini modernizatsiya qilish va past-uglerodli ishlab chiqarishni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida ko'rsatadi [7]. Shuningdek, Circular Economy Practitioner Guide (2018) va Ecopreneur.eu (2019) ma'lumotlariga ko'ra, Yevropa davlatlarida sirkulyar modelni joriy etish natijasida yangi ish o'rinlari yaratish, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish hamda ekologik samaradorlikni oshirishga erishilgan [3], [4].

Material Economics (2018) tadqiqotida sirkulyar iqtisodiyotning iqlim o'zgarishiga qarshi kurashdagi roli alohida ta'kidlanib, bu model sanoatning uglerod izini 50 foizgacha kamaytirish imkonini berishi qayd etiladi [8]. Shaharia (2018) esa sirkulyar iqtisodiyotning qiymat zanjirida innovatsion mexanizmlar yaratishdagi afzalliklarini tahlil qilib, korxona darajasida chiqindilarni aktiv resursga aylantirish orqali qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlarini ko'rsatadi [6].

Mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, sirkulyar iqtisodiyot O'zbekiston sharoitida iqtisodiy o'sishni ekologik barqarorlik bilan uyg'unlashtiruvchi samarali model sifatida shakllanmoqda. Milliy strategik hujjatlar va xalqaro tajribalar birgalikda ushbu yo'nalishda innovatsion biznes modellarni rivojlantirish, korxonalar raqobatbardoshligini oshirish hamda resurslardan oqilona foydalanish tizimini kuchaytirish uchun mustahkam asos yaratadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda sirkulyar iqtisodiyot konsepsiyasining korxona va tadbirkorlik faoliyatiga ta'sirini chuqur o'rganish maqsadida ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya metodlari orqali nazariy asoslar tahlil qilindi. Qiyosiy tahlil yordamida an'anaviy va sirkulyar iqtisodiyot modellarining samaradorlik ko'rsatkichlari solishtirildi. Statistik tahlil asosida O'zbekiston korxonalari faoliyatidagi resurs tejash, chiqindilarni kamaytirish va qayta

ishlash ko'rsatkichlari o'rganildi. Shuningdek, sintez usuli orqali amaliy natijalar umumlashtirilib, sirkulyar iqtisodiyotni joriy etishning innovatsion mexanizmlari bo'yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalaridan sirkulyar iqtisodiyot tamoyillaridan foydalanayotgan korxonalar va tadbirkorlar ko'plab yutuqlarga erishishi ma'lum bo'lmoqda. Jumladan, resurslardan samarali foydalanish orqali xomashyo va energiya sarfini cheklab, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash orqali chiqindilarning asosiy qismi qayta ishlanib, qo'shimcha mahsulot va daromad manbaiga aylanadi, ekologik samaradorlik tufayli korxonalarning atrof-muhitga zararli ta'siri kamaytirilib, ijtimoiy mas'uliyat kuchaytiriladi. Shuningdek, innovatsion rivojlanish natijasida yashil texnologiyalar va yangi biznes-modellarini joriy etish orqali korxonalarning raqobatbardoshlik salohiyati, moliyaviy barqarorlik asosida resurs tejamkorligi va yangi bozorlarga chiqish hisobiga korxona va tadbirkorlarning foydasi ortadi.

Sirkulyar iqtisodiyot faoliyati - bu resurslarni samarali ishlatish, chiqindilarni kamaytirish va mahsulotlarning umrini uzaytirishga qaratilgan yondashuv bo'lib, u an'anaviy chiziqli iqtisodiyot (ishlab chiqarish-ishlatish-tashlash) modelidan farq qiladi. Mazkur modelning korxonalar va tadbirkorlar, umuman ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchilar uchun afzal jihatlari – butun qiymat zanjiri bo'yicha hamkorlar bilan aloqalarni mustahkamlashda, innovatsiyalarni ko'paytirishda, mijozlar sadoqatini oshirishda, qo'shimcha raqobat yutuqlarida va yangi foyda manbalarini yaratishda hosil bo'ladi. Sirkulyar iqtisodiyotning iste'molchilar uchun manfaatli jihatlari ekologik toza mahsulotlarni iste'mol qilishda va ularning narxlari pasayishida yuzaga chiqadi. Shu bois, bularni sirkulyar iqtisodiyotning yutuqlari sifatida ko'rsatish mumkin. Biznesmenlarning qiymat zanjiri asosida bir-biri bilan munosabatlarini chuqurlashtirish va rivojlantirish uchun mahsulotlarning hayot siklini uzaytirish, qayta ishlash va qayta sotish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun ko'proq o'zaro hamkor bo'lganlarga yetkazib beruvchilar bilan tashkil etish, qayta ishlash operatorlari va distribyutorlar bilan aloqalarni kuchaytirish talab etiladi. Natijada ushbu jarayon tomonlar o'rtasida ma'lumot almashinuvini, standartlarni va uzluksiz hamkorlikni rag'batlantirib boradi. Masalan, elektronika mahsulotlarini ishlab chiqaruvchisi yetkazib beruvchilar bilan birgalikda qayta ishlangan komponentlar standartlarini kelishib olishi mumkin. Ayni paytda, distributerlar esa ta'mirlash va qayta sotish tarmoqlarini barpo qilishi mumkin. Natijada ishlab chiqaruvchilar, ta'minotchilar va iste'molchilar o'rtasida ishonch va operatsion samaradorlik oshishi hisobiga qiymat zanjiridagi umumiy xarajatlar kamayadi.

Sirkulyar iqtisodiyot innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali doiraviy yondashuvni texnologik va biznes-innovatsiyalarni, xususan, dizaynda modulli va ta'mirlanadigan konstruktsiyalar qilinishiga, yangi qayta ishlash texnologiyalarini joriy etilishiga, mahsulot-xizmat sifatidagi (product-as-a-service) modellarning vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Xususan, kiyim-kechak brendida kiyimlar ijaraga berilishi yoki qayta tiklash xizmati joriy etilishi mumkin. Bu esa logistika va materiallarni tejaydigan texnologiyalarni rivojlantiradi. Shu bois, yangi mahsulot va biznes-modellari, materiallarni samarali ishlatishni hamda tadqiqot va taraqqiyot (R&D) ishlarini rag'batlantiradi. Amaliy tajribalarda sirkulyar iqtisodiyot mijozlar sodiqligi ortishiga va brend imijining yaxshilanishiga xizmat qiladi. Xususan, ekologik jihatdan standartlarga muvofiq bo'lgan mahsulotlar va ta'mirlash imkoniyatlari hamda garantiyalash xizmatlari mavjud bo'lganda mijozlar orasida ishonch hosil qiladi. Natijada, uzoq muddat davom etadigan xizmatlar mijozlarni qayta jalb etadi va ularni voz kechib ketishdan saqlab qoladi. Chunki, kafolat berish, ta'mirlash xizmatlari va almashtirish tizimi mijozni brendga bog'lab qo'yadi. Bu esa mijozlarni saqlab qolishga, takroriy sotuvlarni amalga oshirishga va eski mijozlarning og'zaki reklamasi orqali yangi mijozlarni jalb etishga imkoniyat paydo qiladi.

Bundan tashqari, sirkulyar iqtisodiyot raqobat qilish uchun qo'shimcha afzalliklarni va yangi daromad manbalarini keltirib chiqarishi mumkin. Zero, qayta ishlash, remanufacturing (qayta ishlab chiqarish), ta'mirlash, xizmat-asosidagi sotuvlar va materiallar savdosi kabi yangi operatsion segmentlar korxonalarga an'anaviy mahsulot sotish bilan bir qatorda qo'shimcha daromadlarni ta'minlaydigan manbalar uchun sharoit yaratadi. Xususan, mashina ishlab chiqaruvchi kompaniyalar eski ehtiyot qismlarni yangilab, sotishdan daromad oladi yoki "Mahsulot-xizmat tizimi (Product-Service System – PSS)"ni taklif qilib abonentlik haqi oladi. Chunki, "Mahsulot-xizmat tizimi"da kompaniyalar mijozga faqat mahsulotni sotib olish imkoniyatini emas, balki undan foydalanish bilan bog'liq xizmatlarni ham qo'shib taklif qilishi mumkin. Ushbu modelda mijoz mahsulotning o'ziga emas, balki undan foydalanishdagi qulayliklarga, xizmatlarga va boshqa natijalarga ega bo'ladi. Masalan, ofis printerini sotib olish o'rniga kompaniya "bosma xizmatini" taklif qiladi. Mijoz esa faqat chop etilgan varaq uchun haq to'laydi, texnik xizmat va tonerni yetkazib berish ishlab chiqaruvchilarga oid bo'ladi. Bunda asosiy ustuvorlik – "harakatlanish imkoniyati (mobilitiy)"ga, ya'ni mahsulotga egalik qilishda emas, balki, xizmatdan foydalanishga beriladi. Natijada ishlab chiqaruvchilar uchun daromadlar manbai diversifikatsiya bo'ladi, bozordagi barqarorlik mustahkamlanadi va rentabellik darajasi ortadi. Sirkulyar iqtisodiyot modeli korxonalar va tadbirkorlar uchun nafaqat ekologik, balki, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan ham katta ahamiyatga ega hisoblanadi.

An'anaviy "ol–ishlat–tashla" modelidan farqli o'laroq, sirkulyar iqtisodiyot resurslardan samarali foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash va ishlab chiqarish tizimida yopiq sikllarni yaratishga asoslanadi.

Sirkulyar iqtisodiyot modelining korxonalar uchun ahamiyatli va yutuqli jihatlari quyidagilarda namoyon bo'ladi. Jumladan:

Korxonalarda resurslardan samarali foydalaniladi. Bu, model korxonalarga xomashyo va energiyani tejash imkonini beradi. Shuningdek, importga qaramlikni kamaytirib, mahalliy resurslardan maksimal foydalanishga sharoit yaratadi.

Korxonalarda xarajatlarni kamaytiradi. Qayta ishlangan materiallardan foydalanish ishlab chiqarish tannarxini pasaytiradi va chiqindilarni utilizatsiya qilish xarajatlari kamayadi.

Barqaror biznes modeli yaratiladi. Korxonalar "uzoq umrli mahsulotlar", "servis sifatida mahsulot" kabi yangi biznes modellarini joriy etib, barqaror raqobat ustunligini qo'lga kiritadi.

Korxonalarda innovatsion rivojlanish rag'batlanadi. Sirkulyar iqtisodiyot yangi texnologiyalarni joriy etish (eko-dizayn, qayta ishlab chiqarish texnologiyalari, chiqindidan energiya olish)ga undaydi.

Brend obro'sini oshiradi. Atrof-muhitga mas'uliyatli yondashuv iste'molchilar va investorlar ko'zida korxona imijini yaxshilashga xizmat qiladi.

Sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirishning tadbirkorlar uchun ahamiyatli jihatlari va xususiyatlari quyidagilarda yuzaga chiqadi. Xususan:

Tadbirkorlar uchun yangi biznes imkoniyatlari ochiladi. Qayta ishlash, ta'mirlash, "sharing economy" (ulashish iqtisodiyoti), servis xizmatlari kabi yo'nalishlarda yangi startaplar uchun imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Investitsiya jalb qilinadi. Yashil iqtisodiyot va barqarorlikka qaratilgan loyihalar ko'plab xalqaro moliya institutlari tomonidan qo'llab-quvvatlanadi.

Bozorda raqobatbardoshlik uchun sharoit yaratiladi. Ekologik standartlarga javob beradigan mahsulotlarni eksport bozoriga chiqarishda ustunlik ta'minlanadi. Shuningdek, yashil sertifikat va ekomarkirovka orqali yangi segmentlarga kirish imkoniyati tug'iladi.

Risklar kamayadi. Sirkulyar iqtisodiyot xomashyo tanqisligi, energiya narxlarining oshishi va ekologik talablarning kuchayishiga moslashish imkoniyatini ta'minlab beradi.

Ijtimoiy kapital va hamkorlikni kuchaytiradi. Sirkulyar iqtisodiyot jarayoni ko'pincha kooperatsiya va tarmoqlashuvga asoslanadi (masalan, bir korxonaning chiqindisi boshqasiga xomashyo bo'lishi mumkin). Natijada bu tadbirkorlar uchun hamkorlik tarmog'ini kengaytiradi.

Umuman sirkulyar iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish korxonalar va tadbirkorlar uchun o'ziga xos natijalarga zamin yaratadi. Jumladan:

Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish xarajatlarini kamaytiradi;
Innovatsiyalar muntazam ravishda rag'batlantiriladi;
Sirkulyar iqtisodiyot natijasida yangi bozorlar ochiladi;
Sirkulyar iqtisodiyot brend va raqobatbardoshlik kuchini oshiradi;
Sirkulyar iqtisodiyot uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlab beradi.

Sirkulyar iqtisodiyot modeli korxonalar va tadbirkorlar uchun ko'plab afzalliklarga ega bo'lsa-da (masalan, xarajatlar kamayishi va yangi bozorlar ochilishi), shu bilan birga bir qator muammolarni ham keltirib chiqaradi. Shu bois, asosiy muammolarni quyidagicha bayon qilish mumkin. Jumladan:

Moliyaviy muammolar. Kapital jalb qilish qiyinchiliklari. Yangi korxonalar va startaplar sirkulyar modellarni joriy etish uchun zarur moliyaviy resurslarni topishda qiyinchiliklarga duch kelishi mumkin. Investorlar ko'pincha bu modellarning uzoq muddatli rentabelligini baholashda ikkilanadi. Chunki dastlabki investitsiyalar xarajatlari yuqori bo'ladi. Chiziqli modeldan sirkulyar modelga o'tish uchun texnologiyalar, jarayonlarni o'zgartirish va xodimlarning malakasini oshirish katta mablag' talab etadi. Masalan, qayta ishlash tizimlarini yaratish yoki materiallarni qayta ishlatish uchun yangi infratuzilma qurish qimmatga tushishi mumkin.

Texnologik va infratuzilma muammolari. Qayta ishlaydigan texnologiyalar yetishmasligi. Ko'plab materiallar (masalan, plastmassa) samarali qayta ishlanmaydi. Chunki mavjud texnologiyalar yetarli emas. Bu korxonalar uchun chiqindilarni qayta foydalanishda qiyinchiliklar tug'diradi. Ma'lumotlar va monitoring tizimlarining rivojlanmaganligi tufayli mahsulotlar va materiallarni butun hayot sikli mobaynida kuzatish uchun raqamli vositalar zarur. Ammo, ular samarali jotiy etilmaganligi uchun ta'minot zanjirini murakkablashtiradi va sifatni ta'minlashni qiyinlashtiradi.

Bozor va iste'molchilar bilan bog'liq muammolar. Iste'molchilarda axborotning yetarsizligi. Ko'plab mijozlar sirkulyar mahsulotlarni qimmatroq deb hisoblashi yoki ularning afzalliklarini tushunmasligi mumkin, bu esa sotuvlarni kamaytiradi.

Korxonalarda ishlab chiqarish quvvatini kengaytirish qiyinligi. Kichik tadbirkorlar uchun modellarni katta miqyosda joriy etish, masalan, global bozorlarga chiqish, qo'shimcha muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Chunki, xalqaro standartlar va talablar jahonda tubdan farq qiladi.

Biznes model va jarayonlar bilan bog'liq muammolar. Chiziqli modeldan sirkulyar iqtisodiyot modeliga o'tishdagi qiyinchiliklar. Korxonalar an'anaviy biznes modellarini o'zgartirishda, masalan, mahsulotni sotish o'rniga ijaraga berish yoki qayta ishlatishga o'tishda, ichki jarayonlarni qayta tashkil etishlari kerak bo'lishi mumkin. Bu jarayon vaqt va tajriba talab qiladi. Shuningdek, ta'minot zanjiri o'zgaruvchanligi, sirkulyar modelda materiallar boshqa korxonalarning chiqindilaridan olinishi mumkin. Faqat, bu yetkazib berishning beqarorligiga olib kelganligi uchun korxonalarning moslashuvchan bo'lishini talab etadi va risklarni ko'paytiradi.

Regulyator va siyosiy muammolar mavjudligi. Sirkulyar iqtisodiyot modeli bo'yicha huquqiy asoslar va standartlar takomillashmagan. Ko'plab mamlakatlarda hali sirkulyar modellarni qo'llab-quvvatlaydigan huquqiy asoslar yaratilmagan yoki borlari ham yetarli darajada takomillashmagan. Natijada bu omillar korxonalar uchun qo'shimcha to'siqlarni keltirib chiqarishi mumkin. Masalan, qayta ishlash faoliyatini tashkil etish bo'yicha me'yorlarning yo'qligi risklarni oshiradi. Ushbu muammolarni yengish uchun korxonalar va tadbirkorlar hukumatlar, investorlar va texnologik kompaniyalar bilan hamkorlik qilishi, ta'lim va innovatsiyalarga e'tibor qaratishi talab etiladi. Chunki, sirkulyar iqtisodiyot kelajakda barqaror rivojlanish uchun zarur, ammo o'tish jarayoni juda murakkab bo'ladigan yo'nalish hisoblanadi.

Milliy xo'jalikda sirkulyar iqtisodiyot joriy etilishining iste'molchilar uchun yutuqli jihatlari ham mavjud. Bunday tizimda atrof-muhitga do'st mahsulotlardan foydalanish imkoniyati vujudga keladi va qayta ishlangan yoki kamroq resurs talab qiladigan mahsulotlar bilan iste'molchilarga ekologik jihatdan ongli tanlov imkoniyati ta'minlab beriladi. Sirkulyar iqtisodiyot natijasida mahsulotlarning xarajatlarini pasaytirish imkoniyati mavjud. Xususan, mahsulotlarni ijaraga olish yoki servis orqali foydalanish an'anaviy xaridga nisbatan arzon bo'ladi. Shuningdek, qayta ishlangan materiallardan tayyorlangan mahsulotlarning narxi, yangi xomashyolar narxi o'zgarib turgan paytlarda, arzon bo'lishi kuzatiladi.

Sirkulyar iqtisodiyot natijasida kelib chiqadigan qo'shimcha jihatlar ham mavjud. Turli xizmat-modellari orqali kelib chiqadigan qulaylik, xususan, mahsulotlarni ta'mirlash, yangilash va uning uzoq umr ko'rishi bu iste'molchilar xarajatlarini uzoq muddatda kamaytiradi. Masalan, elektronika sanoatida remanufacturing va rasmiy qaytib olish dasturlaridan foydalanish komponentlarni qayta ishlash orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

Shuningdek, avtomobillarni haydovchilar bilan bo'lishish yoki ularga ulashish (car-sharing) xizmatlari va qayta tiklangan ehtiyot qismlar orqali arzon xizmat ko'rsatish mumkin. Bu avtomobillarni haydovchilar bilan bo'lishish yoki ularga ulashish xizmatlari deganda, mazkur holatda an'anaviy shaxsiy avtomobil egaligidan farqli ravishda, odamlar avtomobildan muayyan vaqt yoki masofa uchun foydalanish huquqini olishi ko'zda tutiladi. Ushbu xizmatni maxsus kompaniyalar yoki ba'zi avtomobil ishlab chiqaruvchilar korxonalar o'zlari taqdim etadi. Bundan tashqari, poyabzal va kiyim sanoatida brendlar kiyimlarni ta'mirlash, qayta sotish va ijaraga berish xizmatlari orqali mijozlarning sodiqligini oshiradi. Demak, milliy bozorda sirkulyar iqtisodiyot modelini joriy etish va rivojlantirish ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar, umuman jamiyat uchun samarali muvaffaqiyatlarga zamin yaratadi. Shu bois, mazkur iqtisodiy faoliyat turini mamlakatlarda shakllantirish va uni har tomonlama qo'llab-quvvatlash orqali rivojlantirish dunyoda eng dolzarb va ustuvor yo'nalishlardan hisoblanadi.

Shu bois, bugungi kunda milliy iqtisodiyotda sohani rivojlantirish uchun dolzarb vazifa sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori 1-Ilovasining 26-bandida "Strategiyani amalga oshirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish sohasida boshqaruvni yaxshilashga, tabiiy resurslarni saqlash va ulardan oqilona foydalanishga, issiqxona gazlarining ajratmalarini kamaytirishga, "yashil" energiyadan foydalanishni ta'minlashga, "yashil" ish o'rinlari yaratishga va iqlim barqarorligiga erishishga xizmat qiladi" deb[1] ko'rsatilgan. Mazkur hujjatda mamlakatimizda yashil va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish borasida amalga oshiriladigan faoliyatlar va ulardan kutilayotgan natijalar yaqqol ko'rsatib berilgan.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, xulosa qilganda milliy ishlab chiqarishda yashil va sirkulyar iqtisodiyot tamoyillarini joriy etish milliy iqtisodiyot uchun nafaqat ekologik barqarorlikni ta'minlash, balki korxonalar va tadbirkorlar uchun iqtisodiy va moliyaviy natijalarni yaxshilashning ham muhim omili hisoblanadi. Resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish, chiqindilarni qayta ishlash, yashil innovatsiyalarni qo'llash orqali korxonalar o'z raqobatbardoshligini oshirmoqda, tadbirkorlar esa yangi bozor imkoniyatlarini qo'lga kiritmoqda. Demak, sirkulyar iqtisodiyot iqtisodiy samaradorlik va ekologik muvozanatni uyg'unlashtiruvchi strategik yondashuv sifatida korxonalar va tadbirkorlarning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son) qaroriga 1-ILOVA.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son) qaroriga 1-ILOVA.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2019 — 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi (2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son) qaroriga 1-ILOVA.
3. Circular Economy Practitioner Guide (2018) Strategies and examples. https://www.ceguide.org/Strategies-and-examples.
4. Ecopreneur.eu (2019) Circular Economy Update: Overview of Circular Economy in Europe. https://ecopreneur.eu/wpcontent/uploads/.
5. OECD (2018) OECD Global Material Resources Outlook to 2060. Paris: OECD Publishing. https://www.oecd.org.
6. Shaharia, P. (2018) 'Circular Economy: The Beauty of Circularity in Value Chain', Journal of Economics and Business, 1(4), pp. 584–598. doi: https://doi.org.
7. United Nations Industrial Development Organization (2017) Circular Economy. https://www.unido.org/sites/default/files/2017-07/UNIDO.
8. Material Economics (2018) The Circular Economy: A Powerful Force for Climate Mitigation. Transformative innovation for prosperous and low-carbon industry. https://media.sitra.fi/2018/06/12132041/.

# YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2025. № 10**



© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz